

NEFT VA GAZ SOHASI TERMINLARNING FUNKSIONAL TAHLILI

Jamalova Dilafruz Komiljon qizi

Namangan davlat universiteti tayanch doktoranti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.18999811>

Annotatsiya: Mazkur maqolada neft va gaz sanoatiga oid terminlarning leksik xususiyatlari tahlil qilinadi. Tadqiqotda neft-gaz sohasida qo'llaniladigan terminlarning shakllanishi, ularning semantik aniqligi, sistemaliligi hamda xalqaro terminologiya bilan o'zaro aloqasi ko'rib chiqiladi. Shuningdek, ingliz tilidan o'zbek tiliga kirib kelayotgan terminlarning fonetik, morfologik va sintaktik moslashuv jarayonlari lingvistik nuqtai nazardan tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: neft-gaz terminologiyasi, leksik xususiyatlar, termin, lingvistik moslashuv, fonetik moslashuv.

Neft va gaz sohasi terminlari texnik, ishlab chiqarish, iqtisodiy va ekologik diskurslarni birlashtiruvchi fanlararo tizim bo'lib, ularning funksional tahlili atamalarning qazib olish, burg'ulash va qayta ishlash jarayonlaridagi aniqlik, xalqaro moslashuv hamda ilmiy-texnik xarakterini ochib beradi. Ular tor sohaviy tushunchalarni aniq ifodalashga xizmat qiladi. Neft va gaz terminologiyasining funksional tahliliga tortadigan bo'lsak, ular texnik jarayonlarni noaniqliklarsiz tavsiflaydi masalan, *burg'ulash*, *kon*, *quduq* terminlari misol bo'la oladi. Shuningdek, ular fanlararo xarakterga ega bo'lganligi tufayli geologiya, kimyo, muhandislik va iqtisod terminlarini o'z ichiga oladi. Qolaversa, ularda xalqaro moslashuvhoidisasi ham kuzatilib, sanoatning globallashuvi tufayli ko'plab atamalar xalqaro standartlarga moslashgan. Terminlarga ayrim misollarni keltirib o'tsak: ishlab chiqarish va qazib olish atamalari: *okim*, *nasos*, *kondensat*, texnik-muhandislik terminlari: *platforma*, *quvur liniyasi*, *burg'ulash qurilmasi*, iqtisodiy va ekologik terminlar: *neft eksporti*, *uglevodorod zahirasi*, *atrof-muhit muhofazasi*. Ushbu terminlarning funksional tahlilining ahamiyati shundaki, tilshunoslik nuqtai nazaridan terminlarning shakllanishi va rivojlanish qonuniyatlarini o'rganadi, amaliy nuqtai nazaridan esa, sohaviy tarjima, texnik hujjatlar va ilmiy adabiyotlarda to'g'ri qo'llanilishini ta'minlaydi. Ushbu terminlar faqat nomlash emas, balki murakkab sanoat jarayonlarini boshqarish va ilmiy bilim almashinuvini ta'minlash funksiyasini bajaradi. Neft va gaz sohasi o'ziga xos murakkab va ko'p qirrali terminologiyaga ekani barchaga ma'lum. Bu terminlarning funksional tahlili ularning tilda qanday ishlatilishi, qanday vazifalarni bajarishi va muloqot jarayonida qanday ahamiyatga ega ekanligini o'rganishni anglatadi. Quyida neft va gaz terminlarining asosiy funksional xususiyatlarini tahlil qilamiz. Nominativ (nomlash) funksiyasi terminlarning eng asosiy vazifasi bo'lib, sohadagi ob'ektlar, jarayonlar va asboblarga aniq nom berishdir. Har bir termin ortida aniq bir tushuncha turadi. Masalan, "Burg'ulash qurilmasi" (drilling rig) deganda faqat bitta texnik majmua tushuniladi. Misollar: *Quduq*, *separator*, *bitum*, *kondensat*, *kerosin*. Kognitiv (bilish) funksiyasi terminlar sohadagi bilimlarni tizimlashtirishga yordam beradi. Mutaxassis yangi termini o'rganish orqali texnologik jarayonning mohiyatini tushunadi. Terminlar bilimni ixcham ko'rinishga keltiradi. Masalan, "gidravlik yorish" termini birgina so'z bilan juda murakkab texnologik jarayonni ifodalaydi. Neft gaz terminlarining navbatdagi vazifasi kommunikativ (muloqot) funksiyasi. Ular soha mutaxassislari o'rtasida axborot almashinuvini tezlashtiradi va tushunmovchiliklarning oldini oladi. Bugungi kunda neft va gaz sohasi global xarakterga ega bo'lgani uchun, o'zbek tilidagi terminologiyada ingliz tilidan to'g'ridan-to'g'ri o'zlashish ya'ni transliteratsiya kuchaymoqda.

Masalan: *perforatsiya* (teshish), *ekspluatatsiya* (ishlatish), *logging* (quduqni tadqiq qilish) kabi terminlar bunga misol bo'la oladi. Neft va gaz terminlarining funksional tahlili shuni ko'rsatadiki, bu terminlar shunchaki so'zlar emas, balki murakkab muhandislik g'oyalarini uzatuvchi aniq vositalardir. Ularning to'g'ri qo'llanilishi texnik xavfsizlik va iqtisodiy samaradorlik uchun hayotiy ahamiyatga ega. Funksional terminologiya nazariyasi terminlarni kommunikativ vazifalar nuqtai nazaridan o'rganadi. Ushbu yondashuvda terminlar nafaqat obyekt yoki jarayonni nomlash vositasi, balki ijtimoiy-professional identifikatsiya va bilim uzatish mexanizmi sifatida talqin etiladi. Hallidayning tizimli-funksional grammatika modeli terminlarning matn ichidagi ideatsion, interpersonal va tekstual funksiyalarini aniqlashga yordam beradi. Neft va gaz sohasidagi terminlar morfologik jihatdan sodda, murakkab va qo'shma birliklardan tashkil topadi. Masalan, ingliz tilidagi *pipeline*, *upstream*, *downstream* terminlari struktura jihatdan sodda ko'rinsa-da, semantik jihatdan murakkab konseptlarni ifodalaydi. O'zbek tilida esa *qazib olish*, *neftni qayta ishlash*, *bosim ko'rsatkichi* kabi birikmalar ko'proq qo'llaniladi.

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. Авербух К.Я. Терминологическая вариантность: теоретический и прикладной аспекты // Вопросы языкознания. – Москва, 1986. – №6. – С. 38-49.
2. Ахманова О.С. Словарь лингвистических терминов. – М.: Советская энциклопедия, 1966. – 608 с.
3. Будагов Р.А. Язык – реальность – язык. – М.: Наука, 1983. – 263 с.
4. Вюстер Э. Введение в общую теорию терминологии. – М.: Прогресс, 1979. – 264 с.
5. Головин Б.Н. О некоторых аспектах лингвистического и информационного изучения термина // Научный симпозиум "Место терминологии в системе современных наук". – М., 1970. – С. 38-40.
6. Гринев-Гриневиц С.В. Терминоведение. – М.: Академия, 2008. – 304 с.
7. Даниленко В.П. Русская терминология: Опыт лингвистического описания. – М.: Наука, 1977. – 246 с.
8. Лотте Д.С. Основы построения научно-технической терминологии. – М.: Изд-во АН СССР, 1961. – 160 с.
9. Реформатский А.А. Введение в языкознание. – М.: Просвещение, 2004. – 536 с.
10. Реформатский А.А. Термин и терминология // Вопросы терминологии. – М., 1961. – С. 45-52.